

“O‘zkiyosanoat” AJ Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etmoqda

// 30 October 2025 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/sanoat-yarmarkasi-oktabr>



Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo‘lib o‘tmoqda. Ikki kun davom etadigan hududiy sanoat yarmarkasining maqsadi, yirik tarmoq korxonalari hamda hududiy tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, ishtirokchilarga respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar to‘g‘risida axborotlarni taqdim etish, yangi shartnomalar imzolash, hamkorlikda istiqbolli loyihalarni rejalashtirish, mahalliy lashtirish bo‘yicha kelishuvlarga erishish hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishini yo‘lga qo‘yish hisoblanadi.



Ushbu yarmarka neft va gaz sanoati, elektr-energetikasi, kimyo sanoati, charm-poyabzal, to'qimachilik, elektrotexnika va farmatsevtika sanoati sohalariga ixtisoslashgan tarmoq va hududiy korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarni yanada mustahkamlash bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun ham yanada katta imkoniyatlar eshigini ochadi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati